



**INNOVATIVE WORLD**  
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



**TADQIQOTLAR**



**ILM-FAN**



**TEKNOLOGIYALAR**

# ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

## ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**2026**



Google Scholar



zenodo



OpenAIRE



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR  
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,  
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 3-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro  
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

O'ZBEKISTON-2026

**Turon qadimgi davri bo'yicha Eron tarixshunosligini tadqiq etishning  
ahamiyati xususida**

**Xojamberdiyev E. Sh.**

Tarix instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada milliy tarix va arxeologiya sohasida xorijiy tarixshunoslik, xususan, Eronda Turon arxeologik davrining qanday yoritilayotganini o'rganishning ilmiy va amaliy ahamiyatiga oid masalalar ochib berildi. Ushbu muammo bo'yicha bugungi kundagi tadqiqotlar holati va amalga oshirilishi lozim bo'lgan jihatlar yuzasidan tavsiyalar berildi.

**Kalit so'zlar:** Eron, Turon, Turkiy Davlatlar Tashkiloti, Turkiy dunyo, I.Xudoyor, A.Vahdotiy, A.Muchashiy, S.Sajjodiy, Balx-Marv madaniyati.

Bugungi kunda Turon, turkiy dunyo g'oyasi ostida umumiy tarix, madaniyat, o'zlik va til mushtarakligiga ega davlatlar o'zaro siyosiy, iqtisodiy, ayniqsa madaniy aloqalarni tobora mustahkamlab bormoqda. Jumladan, 2009-yili mazkur davlatlar hamkorligida Turkiy Kengash tashkiloti tuzildi va 2021-yili "Turkiy Davlatlar Tashkiloti" deb qayta nomlandi. Ushbu siyosiy tuzilma Birlashgan Millatlar Tashkiloti ro'xatiga kiritilib, YUNESKO bilan ham madaniy sohada faol hamkorlik qilib kelmoqda. Hozirda Markaziy Osiyo davlatlari qatori O'zbekiston ham Turkiy Davlatlar Tashkilotining tashabbuskor va teng huquqli a'zolaridan biridir. Mazkur tashkilot va unga a'zo mamlakatlarning umumiy ustuvor yo'nalishlaridan biri Turon tarixini tiklash, chuqur tadqiq etish va jahon miqyosida e'tirof qilinishini ko'zda tutadi. Bu omil turkiy dunyo birligining tarixiy asosini mustahkamlashda muhim jihat hisoblanadi. Chunki, qadim Turon mintaqasidagi davlatlarning har biri o'z siyosiy xaritasiga ega bo'lsa-da, ularni tarixiy va madaniy jihatdan chegaralash qiyin.

Yuqoridagi omillar halaqaro ilmiy doiralar orasida Turon tarixining barcha bosqichlari qatori qadimgi davrini ham o'rganishga qiziqishni yanada kuchaytirmoqda. Biroq, ayrim davlatlarning tarixshunoslik maktablarida avvaldan shakllangan o'z tarixi va madaniyatini "markazlashtirish", Turonni ushbu madaniyatlarning bir qismi o'laroq noxolis talqin qilish an'anasi saqlanib qolmoqda. Ushbu holat geosiyosiy maydonda milliy o'zlikni asrash, davlatchilik ildizlari va madaniy merosning dunyo tamaddunidagi beqiyos o'rnini ko'rsatishni taqozo etmoqda. Bu borada Turon, xususan, O'zbekiston tarixining xorij tarixshunosligida qay darajada yoritilayotganini tahlil qilib borish hamda ularga ilmiy-tanqidiy munosabat bildirish dolzarb hisoblanadi.

Jahon tarixshunosligida Turonning tosh, mis-tosh va bronza davri yuzasidan izlanishlar olib borilmoqda. Ammo, yaqin vaqtlargacha masala asosan G'arb va sovet tarixshunoslik maktablarining qarashlari ustunligida talqin qilib kelindi. Mazkur omil Turon tarixi bo'yicha bir tomonlama yondashuvlarni shakllanishiga olib keldi. Mintaqa tarixiga bevosita bog'liq davlatlar, jumladan qo'shni Eron tarixshunosligi maxsus tadqiq etilmadi. Umuman, mazkur davlatda Turon tarixini

forsiy dunyo madaniy ustunligi doirasida o'rganish an'anasi ko'zga tashlanadi. Biroq, Eron olimlarining tadqiqotlarida milliy tarixshunoslikda e'tibor qilinmagan va mavjud bo'shliqlarni to'ldiruvchi masalalar ham o'rin olgan. Ushbu jihatdan Eron tarixshunosligini o'rganish Turon arxeologik davriga oid yondashuv va qarashlarni yangi nuqtayi nazardan ya'ni, boshqa rakursdan ko'rish imkonini beradi.

So'nggi yillarda milliy davlatchilik tarixini eskicha va mafkuraviy qarashlardan holi, Yangi O'zbekiston tamoyiliga mos tarixiy mezonlar asosida xolisona yoritish, mamlakat va chet ellardagi kam o'rganilgan yoki ilmiy iste'molga kiritilmagan qadimgi moddiy-ma'naviy meros namunalari tadqiq etishga davlat siyosati darajasida qarab kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasining moddiy, madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ularni tadqiq etishga oid maxsus Qarorlari va davlat rahbarining Farmonlari qabul qilindi. Mazkur me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda Eron tarixshunosligini o'rganish muhim o'rin tutadi.

Turon qadimgi davrining Eronda o'rganilishi masalasi, shu kunga qadar na milliy, na xorij tarixshunosligida maxsus tadqiq etilmagan. Muammoni Eron, G'arb, Tojikiston va O'zbekistonda bajarilgan umumiy xususiyatga ega quyidagi tadqiqotlar misolida tahlil qilish o'rinli:

Eronda mavzuga oid kichik hajmli tadqiqot sifatida I. Xudoyorning "Markaziy Osiyodagi Eron madaniyati va sivilizatsiyasi hududi" nomli maqolasini misol qilish mumkin [1: 48]. Muallif ushbu maqolasida Turon tarixiga oid tadqiqotlarning ko'lami, tarixshunoslik bosqichlari va ularga ta'sir qilgan siyosiy omillarni qisqacha tahlil qiladi. Tadqiqotchi asosan Turon umumiy tarixining Eronda o'rganilish holatiga urg'u berib, qadimgi bosqichining o'rganilish holatini yaxlit ochib bermagan. E'tiborli jihati I. Xudoyor Eronda bu yo'nalishda maxsus tadqiqot yo'qligini alohida ta'kidlaydi [1: 48]. Shu o'rinda Turon qadimgi davri tarixshunosligiga bilvosita daxldor Erondagi arxeologiya yo'nalishida bajarilgan tadqiqotlarni ham sanab o'tish lozim. Masalan, A. A. Vahdotiy va A. Muchashiyar tomonidan hammualliflikda yozilgan "Eron Milliy muzeyidagi Marlik qabristoni yassi bronza muhrlari: bronza davrida Balx-Marv madaniyati bilan aloqalar dalili" nomli maqola [2:28], S. Sajjodiyga tegishli "Markaziy Osiyo arxeologiyasi" nomli ikki jildlik monografiyada [3:11] mualliflar o'zlaridan oldingi Eron olimlarining Turon arxeologiyasi yuzasidan alohida muammolar, jumladan, Turondagi arxeologik yodgorliklar tavsifi, davriy chegaralari, madaniy xususiyatlar va ko'chishlarga oid ilmiy qarashlarini qayd etib o'tganlar.

G'arb tarixshunosligida ham Turon qadimgi davrining Eronda o'rganilishi masalasi yaxlit yoritilmagan. Biroq, arxeologik tadqiqotlarda Eron olimlarining Turon moddiy madaniyat namunalari xususidagi ayrim qarashlariga iqtiboslarni uchratish mumkin. Jumladan, P. Yul, S. Vinkelmanlar mintaqa yodgorliklarida aniqlangan bronza davri muhrlari bilan Erondagi Shahdod (Habis) makoni

muhrlarini o‘zaro qiyoslashda A. Hokimiy, Yu. Majidzoda qarashlarini qayd etganlar [4:482].

Tojikistonda bajarilgan ishlarga asli eronlik bo‘lgan arxeolog E. S. Aliashrafning bronza davrida Turon va Eronning o‘zaro madaniy aloqalari muammolariga oid ishini misol qilish mumkin. Tadqiqotchi o‘z ishida M. Rahbar, S. Sajjodiy, M. Qobuliy, A. Hokimiy, H. Taloiy, M. Bayoniy kabi Eron olimlarining qarashlarini nisbatan kengroq tahlil qilgan [5:86]. Yana bir eronlik olim P. S. Katayun ham o‘zining Tojikistonda himoya qilgan “Gilon va O‘rta Osiyoning marosimiy idishlari va haykalchalari Eron xalqlari tarixi va afsonalarini o‘rganishda manba sifatida (miloddan oldingi II ming yillik oxiri va I ming yillik boshlari)” nomli dissertatsiyasida o‘zidan oldingi Eron olimlarining masalaga oid fikrlariga iqtiboslar keltirib o‘tgan [6:103]. Biroq, mazkur tadqiqotlar faqat bronza davri bilan chegaralangani hamda arxeologiya yo‘nalishida bajarilgani bois Turon qadimgi tarixining Eronda o‘rganilishini yaxlit aks ettirmaydi.

Milliy tarixshunos olim Sh. Kamoliddin Turon tarixining xorijda o‘rganilishiga oid monografiyasining bir qismida Erondagi umumiy yondashuvlar, ularning geosiyosiy va mafkuraviy mohiyatini qisqacha ochib bergan [7:11]. Muallif Eron olimlarinig Turon qadimgi davriga oid tadqiqotlariga bevosita to‘xtalmagan bo‘lsa-da, ushbu ish nazariy va uslubiy jihatdan ahamiyatlidir. Shuningdek, Sh. Shaydullayev, O. Xamidov kabi milliy arxeologlar ham bronza davri piktografik yozuvlari va Turonda xlorit xom ashyosining manbasi kabi masalalarda Eron olimi A. Hokimiy qarashlariga iqtibos berib o‘tganlar [8:94; 9:11].

Tarixshunoslik tahliliga ko‘ra aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan tadqiqotlarning ayrimlari umumiy va qisqa xususiyatga ega, ko‘pchiligi esa arxeologiya yo‘nalishidagi ishlar hisoblanadi. Ularda asosan Eron olimlarining mavzuga oid alohida masalalar bo‘yicha qarashlari tahlil qilingan. Shu sababli mazkur ishlar Turon qadimgi davrining Eron tarixshunosligida yoritilishini to‘liq va tizimli ochib berolmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Turonning tosh, mis-tosh va bronza davriga oid Erondagi tadqiqotlarni tanqidiy o‘rganish, tahlil qilish, ulardagi milliy tarixshunoslikda mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishda, bahsli masalalrni yechishda ahamiyatli jihatlarni aniqlash orqali milliy arxeologiya hamda tarix sohasida keyingi tadqiqotlar rivoji uchun yangi ma‘lumotlarni ilmiy iste‘molga kiritish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Bu muammoni yochish uchun milliy arxeologik tadqiqot muassasalari, oliy o‘quv yurtlaridagi sohaga oid yo‘nalish va kafedralar bilan Erondagi arxeologiya markazlari, oliy ta‘lim tashkilotlari bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlash, qazishmalar o‘tkazish, ilmiy loyihalar va konferensiyalar tashkil etish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. ابراهيم خدايار. حوزه فرهنگي تمدني ايران در آسيای مرکزی. فصلنامه تاريخی مطالعات ملی. شماره ۲. تهران. ۱۳۹۲. ص. ۴۸.
2. امير ساعد موچشي، علي اکبر وحداتي. مهرها ی مسطح مفرغی گورستان مارلیک در موزه ملی ایران: شواهدی از ارتبات با فرهنگي بلخی-مروی در دوره مفرغ. مجله موزه ملی ایران. شماره ۳. ۱۴۰۰. ص. ۲۸-۳۹.
3. سيد منصور سيد سجادی. باستانشناسی آسيای مرکزی. جلد اول. تهران. ۱۳۹۴. ص. ۱۱.
4. Труды Маргианской Археологической Экспедиции / под редакцией Дубова Н. А. – Москва. – 2016. – С. 482-491.
5. Эликай Дехно Сорая Алиашраф. К проблеме связей Ирана и Средней Азии в бронзовом веке: дисс....для...к.и.н. – Душанбе, – 2016. – С. 171.
6. Пела Саиди Катаюн. Ритуальные сосуды и статуэтки Гилана и Средней Азии как источник по истории и мифологии иранских народов ( конец II-начало I ты. до н.э.): дисс....для...к.и.н. – Душанбе, – 2016. – С. 265.
7. Kamoliddin Sh. S. Markaziy Osiyo tarixi zamonaviy tarixshunosligidagi yondashuvlar. – Toshkent: Fan ziyosi, 2023. – B. 11.
8. Shaydullayev Sh. O‘zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo‘lishi (Baqtriya misolida): t.f.d. uchun diss. – Samarqand, 2009. – B. 350;
9. Xamidov O. Shimoliy Baqtriyaning ilk temir davri yodgorliklaridan topilgan ilk zardushtiylikka oid moddiy madaniyat namunalari // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2021. – 6-son. – B. 9-20.